



AJER
AKADEMIC JOURNAL OF
EDUCATIONAL RESEARCH

ISSUE 6

**AKADEMIC JOURNAL
OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL**

November 2024

WWW.AJERUZ.COM



International Scientific Journal
AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
November 2024

Tashkent 2024

Eshmanova Nodira Nazarqulovna
CHDPU Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti o‘qituvchisi

Mirzaxmatova Xayotxon
Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi
3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada PISA o‘quvchilarning funksional savodxonlik darajasini baholashga xizmat qiladigan baholash dasturining ahamiyati haqida ma‘lumot berilgan. Ushbu dastur olingan bilim va ko‘nikmalarni hayotiy vaziyatlarga qo‘llay olish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *PISA, xalqaro baholash, savodxonlikni baholashdagi kompetensiyalar, milliy o‘quv dasturi, loyihalash, ilmiy-tadqiqot*

Davlatimiz rahbarining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida 2030-yilga borib PISA o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish bo‘yicha vazifalar belgilangan. Dunyoda yuzdan ortiq davlat o‘z mamlakatida joriy etilgan ta‘lim sifatini xolisona baholash maqsadida PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS, EGRA hamda EGMA kabi xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etadi. Jumladan, O‘zbekistonning ham birinchi marta PISA va boshqa xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etishi ko‘zda tutilgan.

PISA – o‘quvchilarni ta‘limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi PISA (Programme for International Student Assessment) — bu xalqaro baholash dasturi bo‘lib, 15 yoshli o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholaydi. Uning asosiy maqsadi o‘quvchilarning funksional savodxonligini o‘lchashdir, ya‘ni o‘quvchilarning muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, bilimlarni kundalik hayotda qo‘llashdagi qobiliyatlarini baholash.

PISA o‘quvchilarning uchta asosiy sohada funksional savodxonligini baholaydi:

1. Matematika savodxonligi: O‘quvchilarning matematik tushunchalarni tushunishi va ularni turli hayotiy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyati.
2. Funksional o‘qish savodxonligi: O‘quvchilarning matnlarni o‘qish, tushunish va ularga asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyati.
3. Tabiat fanlari savodxonligi: O‘quvchilarning tabiiy fanlar sohasida bilimlari va ularni amaliyotda qo‘llash qobiliyati.

PISA baholash tadqiqotlari har uch yilda o‘tkaziladi va dunyoning turli mamlakatlaridagi o‘quvchilarning ta‘limdagi yutuqlarini solishtirish imkonini beradi. Shuningdek, PISA natijalari ta‘lim siyosatini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat

qiladi. PISA tadqiqotlari o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini nafaqat o'quv dasturlari, balki ijtimoiy-iqtisodiy omillar, ta'lim tizimlarining samaradorligini o'rganishda ham yordam beradi. Tadqiqotning har uch yilda o'tkazilishi esa mamlakatlarga siyosiy qarorlar va tegishli dasturlarning ta'sirini hisobga olish uchun ma'lumot va tahlillarni ichiga olgan holda o'z vaqtida axborot berish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, mamlakatlar bu davr davomida o'z ta'lim tizimida kelajakda erishish ko'zda tutilgan maqsadlarni aniqlab olishiga imkon beradi. PISA tadqiqotlarida asosan 15 yoshli o'quvchilar qatnashishining sababi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a'zo aksariyat davlatlarda 15 yosh majburiy ta'lim bosqichining yakuniy davri hisoblanadi. Savodxonlikni baholashda uyidagi kompetensiyalarni o'quvchilarning tabiiy fanlardan savodxonligini aniqlashda qo'llaniladigan kompetensiyalar misolida ko'rib chiqamiz mumkin:

- Hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntira olish kompetensiyasi.
- Ilmiy-tadqiqotlarni loyihalash va baholash kompetensiyasi.
- Ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish kompetensiyasi.

PISA tadqiqotlarida O'zbekistonning ishtiroki mamlakatda ta'lim sifati nechog'lik darajada ekanini xalqaro miqyosda ko'rsatadi. Bu nima uchun muhim? Avvalo, ta'limdagi o'zgarishlarda to'g'ri yo'ldan ketyapmizmi, degan savolga javob topiladi. PISA tadqiqotlarida shunday savollar beriladiki, bu qaysidir bir faktga asoslangan bo'lmaydi. Bitta savolda bir nechta fanlar elementlari jamlangan va unda kimyo, fizika, biologiya ham bo'lishi mumkin. Test bolalarning mustaqil hayotga nechog'lik tayyorligini baholaydigan sinov.

Hozirgi kunda milliy o'quv dasturi ishlab chiqilmoqda. Milliy o'quv dasturi doirasida bolalarga endi nazariy bilim emas, hayotiy ko'nikma va malaka berish ustida ish olib borilmoqda. Shu orqali biz xalqaro baholash dasturlarida natijaga erishishimiz mumkin.

PISA tadqiqotlari har bir mamlakatga o'zining kuchli va zaif tomonlarini dunyo ta'lim tizimi bilan qiyoslash imkonini beradi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb etadi, ya'ni investorlar mamlakatda bilimli, malakali kadrlar bormi, degan savolga bu tadqiqot natijalari orqali javob topadi.

Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi (inglizcha: Programme for International Student Assessment) turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur hisoblanadi. PISA testlari maktab o'quvchilarining hayotda kerak bo'ladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko'nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta'lim tizimining bu o'zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Ushbu dastur 1997-yilda joriy etilgan bo'lib, har uch yilda bir marta o'tkaziladi, birinchi marta 2000-yilda o'tkazilgan. Har uch yilda bitta fan yo'nalishiga afzallik berilib, jami testlar majmuasining deyarli 50 foizi shu

fanga mansub bo'ladi. Darslarda o'quvchilarning tabiiy ilmiy savodxonlikni shakllantirish va rivojlantirish uchun nima qilish kerak?

Ta'lim jarayoni quyidagilarni ta'minlashi kerak:

- turli muammolarni hal qilishda ilmiy yondashuvni o'zlashtirish,
- farazlarni shakllantirish ko'nikmalarini egallash,
- tajribalarni rejalashtirish va o'tkazish, olinganlarni baholash natijalar,
- eksperimental va nazariy bilimlarni solishtirish orqali hayotiy topshiriqlar berish,
- aniq o'lchovlarni bajarish ko'nikmalarini shakllantirish,
- olingan natijalarni yetarlicha baholash, tahlil qilish, ilmiy jihatdan taqdim etish.

2000-yilda ilk bor o'qish savodxonligiga urg'u berilgan. Test Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan yetakchi xalqaro ilmiy tashkilotlar bilan konsorsiumda, milliy markazlar ishtirokida tashkil etiladi. Tadqiqotda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo davlatlar, shuningdek, OECD bilan hamkorlik aloqalari bo'lgan davlatlar ishtirok etadi. PISA tadqiqoti monitoring tadqiqoti bo'lib, u turli mamlakatlardagi ta'lim tizimlarida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni aniqlash va solishtirish, ta'lim sohasidagi strategik qarorlar samaradorligini baholash imkonini beradi. 2021-yildagi PISA tadqiqotida matematik savodxonlik darajasini tekshirish ustuvorlik kasb etadi. Ma'lumot uchun, PISA tadqiqotiga tayyorgarlik ko'rish uchun matematik savodxonlik yo'nalishi bo'yicha smartfondan foydalanish, daraja xossalarning go'zalligi, xarid qilish qarori, navigatsiya kabi topshiriqlarni bajarib, shug'ullanish kerak bo'ladi. Bu borada jahon tajribasida e'tibor qaratsak, PISA tahlillari: Estoniya eng yuqori reytingga erishgan mamlakatlardan biri bo'lib, Estoniya PISA-2015 tadqiqotida matematika, o'qish va tabiiy fanlar savodxonligi bo'yicha eng yuqori reytingga ega bo'lgan o'nta mamlakatning biri edi. Bu muvaffaqiyat uchun kichkina Boltiqbo'yi davlati "Yangi Finlyandiya" deya atala boshlandi. Chunonchi, 2015-yilda Estoniya matematika va tabiiy fanlar bo'yicha Finlyandiya o'zib ketdi. Finlyandiyalik ekspertlar 1990-yillardagi ta'lim islohotlari masalalari bo'yicha estoniyalik hamkasblariga maslahatlar berdi.

Umuman olganda, PISA muayyan maktab o'quv dasturlarining ustunligini o'rganish o'rniga o'quvchilarning asosiy mavzularda bilim va ko'nikmalarini qo'llay olish qobiliyati muammolarni taxlil qilish, sharxlash va samarali hal qilish, fikrlash va muloqat qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqadi. Xulosa qilib aytganda hozirgi kunda milliy innovatsion tizimni rivojlantirish hamda innovatsion potensialini takomillashtirmoq mamlakatning iqtisodiy o'sishning eng muhim omillari hisoblanmoqda. Shuning uchun mazkur omillarni tadqiq etish muammolari dunyoning ko'plab davlatlar va xalqaro tashkilotlar uchun dolzarbdir. Xalqaro tadqiqotlardagi natijalarni yaxshilash uchun o'qituvchilarni maqsadli tayyorlash va ta'lim jarayonida o'qitish metodikasi va ustuvor tamoyillarni o'zgartirish zarur. Buning uchun biz o'qituvchilarni tayyorlashimiz, rivojlantiruvchi ta'limning yanada faol tizimini tatbiq etishimiz va o'qituvchilarni ta'lim

jarayonida yanada muvaffaqiyatli foydalana oladigan materiallar bilan ta'minlashimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturida"gi Qonuni // Oliy Ta'lim: Meyoriy-huquqiy va uslubiy hujjatlar to'plami. Toshkent: 2004.
- 2.Toshboyeva, S. Q., Hamidov, S. X., & Qurbanova, L. M. (2021). Elektrolitik. Dissotsiyalanish nazariyasini o'qitishni AKT asosida takomillashtirish. Science and Education, 2(3).
- 3.Qurbonova.L.M. "PISA xalqaro baholash dasturining amaliy ahamiyati" mavzusidagi maqolasi
- 4.Davletshin M.G Zamonaviy maktab o'quvchisining psixologiyasi. T.: O'zbekiston 1999
5. Davlatov K.D. va b. Mehnat va kasb ta'limi xamda metodikasi. T.: O'qituvchi 1992.
- 6.Elektron kutubxona ma'lumotlari www.ziyonet.uz



AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
international scientific journal
6-son

Nashr qilingan sana: 27.11.2024.
Shrift: "Times New Roman".

“ACADEMIC JOURNAL” MCHJ

Manzil: 700096, Toshkent shahri, Chilozor tumani, Bog‘iston ko‘chasi, 116/6.
www.ajeruz.com, info@ajeruz.com, +998950457172